



**Muqimiy va Zavqiy gʻazallarida ayrim tushunarsiz soʻzlarning
leksik va morfologik tahlili**

Abdurahmonova Gulorom

Gʻafforova Gulbahor

Boyqulova Sevara

Termiz davlat universiteti

Oʻzbek filologiyasi fakulteti

3-bosqich (521-guruh) talabalari

Tel: +998912440253

Annotasiya: Mazkur maqolada Muhammad Aminxoʻja Muqimiy hamda Ubaydulla Zavqiylarning bir nechta tushunarsiz gʻazallarda uchraydigan maʼnosi tushunarsiz boʻlgan soʻzlar leksik va morfologik jihatdan tahlil ostiga olinadi.

Kalit soʻzlar: Muqimiy, Zavqiy, "Kim desun", "Kelmasa-kelmasun netay", leksik va morfologik tahlili.

Abstract: In this article, words with incomprehensible meaning found in several obscure ghazals of Muhammad Aminkhoja Muqimi and Ubaidulla Zavqi are analyzed lexically and morphologically.

Key words: Муқимий, Завқий, "Kim desun", "Kelmasa-kelmasun netay", lexical and morphological analysis



Muhammad Aminxo‘ja Muqimiyning otasi toshkentlik, onasi Oyshabibi esa xo‘jandlik bo‘lib, ular Qo‘qonda yashagan. Muqimiy boshlang‘ich ma‘lumotni mahallasidagi maktabda olgan. Onasi Muhammad Aminxo‘jada she‘riyatga havas uyg‘otgan. Muqimiy Qo‘qon shahridagi Nodira tomonidan qurdirilgan "Mohlaroyim" madrasasida, so‘ngra Buxoro madrasalaridan birida o‘qigan (1864—1865; 1875—1876). 1876-yilda Qo‘qonga qaytgach, yer qurilishi mahkamasida mirzalik qilgan. U mahkamadagi faoliyati davomida amaldorlarning qallobliklarini befarq kuzata olmasdan o‘zining „Tanobchilar“ satirasini yozgan.

"Kim desun"radifli g‘azali.

Ul tag‘ofilpeshag‘a holi xarobim kim desun?

Hajrida mundoq meni ko‘rgan azobim,kim desun?

Mazkur misraning birinchi baytida keltirilgan sizni leksik va morfologik jihatidan tahlilga tortadigan bo‘lsak,"Tag‘ofil"-o‘zini e‘tiborsiz,beparvo,namlikka solish,bilib-bilmaslikka olish.Ya‘ni shoir o‘z yorining beparvoligini,o‘zini bilib-bilmaslikka olayotganini bayon etadi. Morfologik jihati bilan esa fe‘l:tuzilishiga ko‘ra qo‘shma fe‘l,vazifasiga ko‘ra harakat nomi,mayli shakllariga ko‘ra xabar mayli.

Hamnishindurlar ulug‘larga xushomad aylar,

Yo‘lida jonini xayru savobim kim desun?

Birinchi baytida keltirilgan "Hamnishin" so‘zini leksik,morfologik asosda oladigan bo‘lsak,uning ma‘nosini "birga o‘tiruvchi.O‘zaro suhbat o‘tirish,ulfatchilik kabilarda birga bo‘luvchi shaxs".Shoir bunda ulug‘larga xushomad qiluvchi ularning suhbatida yuruvchi va qay ma‘noda ularga tilyog‘lamalik qilguvchilarni nazarda tutadi.Morfologik asosda fe‘l:vazifasiga ko‘ra harakat nomi,mayli shakliga ko‘ra xabar mayli.

"Navbahor ochildi gullar,sabza bo‘ldi bog‘lar..." g‘azali.



Xush bu mahfilda tiriklik ulfat-ahbob ila,

O'ynashib,gahe tabiatni qilaylik cho'kar.

"Navbahor ochildi gullar,sabza bo'ldi bog'lar..."g'azalida keltirilgan ushbu misraning birinchi baytida keltirilgan "Mahfil" siz leksik jihatdan ma'nosi aniqlanganda to'planish joyi,yig'ilish,yig'in.Bu so'zni shunday tahlil qiladigan bo'lsak,bunday xush vaqtlarda do'st-yorlar bilan yig'ilish,birga bo'lish kerakligiga ishora qilingan.Morfologik jihatida esa bu so'z ot so'z turkumida,ya'ni yig'in so'zini olish mumkin.

Marham istab kimsadan,zaxmi dil izhol aylasang,

Choraye qilmoqdir o'zga,ustig'a tirnog'lar.

Ayni shu g'azalning keyingi misrasining birinchi baytida keltirilgan "Marham"so'zi leksik jihatdan marhamat ma'nosida keladi.Ya'ni kimdandir marhamat istasang.. degan ma'noda kelgan.Morfologik jihatdan esa ot so'z turkumidagi so'z hisoblanadi.

Ubaydulla Solih o'g'li Zavqiy 1853-yilda Qo'qon shahrining Shayxon dahasida mayda hunarmand oilasida dunyoga keldi. Otasi mahsido'zlik bilan shug'ullanar, oila moddiy qiyinchilikda hayot kechirardi. Lekin qobiliyatli Ubaydullani ma'rifatli qilib tarbiyalashga intilgan usta Solih o'g'lini avval maktabga o'qishga beradi. So'ngbo'lajak shoir 1870-1871-yillarda Qo'qondagi «Madrasayi oliy» va «Madrasayi chalpaklarda tahsil ko'radi. Turmush sharoitining og'irligi tufayli madrasani tark etishga majbur bo'lgan Ubaydulla ota kasbi kosibchilik bilan shug'ullanib, ro'zg'or tebratadi. Lekin u sharq she'riyatining o'zbek va fors tilidagi eng nodir namunalarini tinimsiz o'qib boradi. Badiiy ijodga qiziqish yosh shoirni Muqimiy, Furqat, Nusrat, Muhayyirlar bilan uchrashtiradi. Va ular ta'sirida Ubaydulla ham Zavqiy taxallusi bilan she'riy mashqlar qiladi.

"Kelmasa-kelmasun netay"radifli g'azali

Eski buzug xarobada chug'zdek ayladim vatan,



Bir tuzuk oshyona yo‘q, kelmasa-kelmasun netay.

Ubaydulla Zavqiyning "Kelmasa-kelmasun netay"radifli g‘azalidagi mazkur misraning baytida kelgan leksik so‘z"Chug‘z" so‘zi "boyqush"ma’nosida kelgan.Shoir Zavqiy mazkur so‘z bilan xarobalarda darbadar yuruvchi boyqushlarni eslab o‘zining ham vatansizligini shu qushga qiyoslaydi.Morfologik jihati esa ot so‘z turkumida.

Kunduzi partavafkanim bo‘lmasa shami anjuman,

Va’dasi bir shabona yo‘q, kelmasa-kelmasun netay.

Xuddi shu g‘azalning keyingi misrasining birinchi baytida kelgan "Partav" so‘zi"quyosh,oy,chiroq shu’lasi" ma’nosini anglatadi. Bayt orqali shoir kunduzi quyosh bo‘lmasa kunning tunga aylanishi,shu bilan birga shamga muhtoj bo‘lib qolish holatini aks ettirgan. Ko‘rinib turganidek,bu so‘z ham ot so‘z turkumiga tegishli hisoblanadi.

"Jahonda kamsuxan kim bo‘ldi"g‘azali

Sadaflar ko‘p og‘iz ochmak bilan ko‘ksi bo‘lur xoli,

Ki ba’zisi labin kam vo qilib durri yagon bo‘ldi.

"Jahonda kamsuxan kim bo‘ldi"g‘azalida keltirilgan misraning ikkinchi baytidagi"Yagon" so‘zi leksik jihatdan tahlil qilinganda izohli lug‘atda aynan ma’nosi keltirilmagan ekan, taxmin bo‘yicha bu so‘z "yagona, yakka" so‘zi bilan bir xil ma’noda.Biroq bu so‘zni o‘zidan oldin kelgan durri so‘zi bilan birga ko‘rib chiqish kerak.

Bilamizki, tilda eng ko‘p o‘zgarishga uchrovchi qatlam leksik qatlam hisoblanadi.Muqumiy va Zavqiy ijodidagi ayrim so'zlarni leksik qatlamning o'zgarishi oqibatida biz ma'nosini tushuna olmay qoldik. Demak, bizning vazifamiz ana shu so'zlarning izohini kelajak avlodaga yetkazish va mazmun-mohiyatini ochib berish. Xulosa o'rnida shuni aytishimiz mumkinki, tilning o'zgarib boraverishi bizni ota-bobolarimiz me'rosini o'rganishimizga qaysidir ma'noda to'sqinlik qilib boradi. Biz bunday ayrim



tushunarsiz so'zlarning izohini berib bormasak, kelajak avlod ajdodlar merosini mutlaq tushuna olmaydigan darajaga borib qolishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. U. Sanaqulov. O'zbekcha adabiy tili tarixining ilk davrlari. Toshkent-2004.
2. S. Rahimov. Matnning lingvistik tahlili.
3. Muhammad Aminxo'ja Muqimiy. Tanlangan asarlar. Toshkent-2007.
4. Ubaydulla Zavqiy. Tanlangan asarlar. Toshkent-2002.
5. O'zbek tilining izohli lug'ati.
6. Ziyozilla. www.ziyo.uz